



Ўзбекистон
Республикаси
Қурилиш вазирлиги

№ 8166-6661-4481-79a9-5ac1-9513-5887
Хужжат яратилинган сана: 2021-09-17
Ариза рақами: 36083054

Хужжат берилган: UNUM BO`STON SAVDO
Қабул қилувчининг идентификация рақами: 303013954

«ТАСДИҚЛАЙМАН»
Toshkent viloyati qurilish
Bosh boshqarmasi бошлиғи
Е.Ро'latov
17.09.2021 16:52

**АРХИТЕКТУРА-РЕЖАЛАШТИРИШ
ТОПШИРИҒИ**

17.09.2021 16:52 й.
1727-1727224-28508 -сон

Лойиҳавий бино (иншоот) тури:	"Bolalar sport-sog'lomlashtirish va dam olish maskani"
Лойиҳавий бино (иншоот)нинг манзили:	Bo'stonliq tumani, "Qoronqul" MFY
Лойиҳавий бино (иншоот)нинг буюртмачиси:	"UNUM BO`STON SAVDO" MCHJ

Ушбу архитектура-режалаштириш топшириғи фақат лойиҳалаштириш ишларини амалга ошириш учун ҳуқуқий ҳужжат ҳисобланиб, қурилиш-монтаж ишларини бошлашга асос бўла олмайди. Қурилиш бош бошқармасининг манзили ва телефон рақамлари: Toshkent shaxri, Bektemir tumani, X.Bayqaro ko'chasi 4-uy, elektron pochta: toshvilakbb@mail.ru tel: +99895 1462880

#	Архитектура-режалаштириш топшириқларининг қисмлари	Қисмларнинг мазмуни
1	Архитектура-режалаштириш топшириқларини ишлаб чиқиш учун асос бўлган ҳужжатлар	Bo'stonliq tumani hokimining 2015 yil 17 iyuldagi 1081 sonli QARORI Bo'stonliq tumani hokimi o'rinbosarining 2021 yil 10 avgustdagi 4369/2-11 sonli ma'lumotnomasi

2	Лойиҳалаштириладиган бино ва иншоот (кейинги ўринларда объект деб аталади) ер участкасининг жойлашиши ва бош режада тугган ўрни	1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 18 maydagi 370-sonli qarorining 4-ilovasi: Loyiha-smeta hujjatlarini kelishish hamda bir vaqtda zilzilaga bardoshliligi vayong`in hafvsizligi bo`yicha loyihaviy yechimlarni ekspertizadan o`tkazish bo`yicha davlat xizmatlari ko`rsatishning Ma`muriy reglamentiga asosan tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari asosida. 2. Shaharsozlik hujjatlari va aholi punktlani qismlarining batafsil rejasi loyihasi (BRL) asosida 3. Qurilishi rejalashtirilayotgan ob`yekt joylashgan hudud xaritasiga asosan hududdagi muhandislik tarmoqlari, ya`ni elektro energiya, suvoqova, gaz, issiqlik manbai, aloqa tarmoqlari bilan va hududning (shu jumladan obyekt qurilishi uchun tanlangan yer maydonining) kirish yo`llari bilan ta`minlanganligi hamda ushbu hududda yashovchi aholi va yo`lovchilarga xizmat ko`rsatishni yuqori darajaga ko`tarishdan iborat.
3	Лойиҳалаштириладиган объект ҳудудининг табиий-иклим кўрсаткичлари	Ob`yekt qurilishini loyihalashtirish uchun mo`ljallangan yer maydoni IV (климат) iqlim hududida joylashgan. Havoo harorati: O`rtacha yillik 25,1° C, Baland harorat 40° C, Past harorat -18° C. Oby`ekt qurilishini loyihalashtirish jarayonida eroziya (yemirilish), seldan saqlash, suv va shamol eroziyasidan saqlash tadbirlari belgilansin.
4	Лойиҳалаштириладиган объект ер участкасининг геологик ва топографик жиҳатдан ўрганилганлиги	Ob`yekt qurilishini joylashtirish ishlari «O`zGAShKLITI» DUK dan olingan toposyomka va geologik (geodezik) izlanishlar to`g`risidagi batafsil ma`lumot, maxsus ruxsatnoma (litsenziya)ga ega tashkilotlarning muhandislik geologiya xulosalari hamda 1:500 miqiyosidagi topoxaritaga (bunda yer osti va yer usti muhandislik tarmoqlari ko`rsatilgan holda) asosan amalga oshirilsin. O`zbekiston Respublikasi miqiyosida me`yoriy hujjat sifatida qabullangan va belgilangan tartibda tasdiqlangan talablariga asosan (QMQ 2.01.03. 96 zilzilaviy hududlardagi qurilish) Bo'stonliq tumani hududi belgilangan.
5	Лойиҳалаштириладиган объект ер участкасининг чегаралари ҳамда унга туташ объектлар ёки ер участкалари тўғрисида маълумот	Ichki yol xamda bosh er maydonlari bilan chegaradosh
6	«Қизил чизиклар ва белгилар»	Loyihalashtiriladigan obyekt yer uchastkasining tasdiqlangan chegarasidan chiqmasdan, qurilish chiziqclariga amal qilgan holda loyiha ishlarini olib borilishi ta`minlansin. Loyihalashtirilayotgan binoning loyihaviy "nol" balandlik belgisi mavjud binolar poydevor balandligiga nisbatan olinsin, ya`ni mavjud avtomobil yo`lining baland nuqtasidan 60-90 sm baland qilib olinsin. Binoni loyihalashtirishda piyodalar yurish yo`lagidan belgilangan tartibda normativ hujjatlarga asosan masofa tashlangan holda joylashtirish kuzda tutilsin. Ushbu hududning "qizil chiziq"lari obyektning bino inshootlariga salbiy ta`sir ko`rsatmaydi.


7	Архитектура талаблари	<p>- Ob'yekt qurilishini loyihalashtirish bo'yicha shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida "Jamoat binolari" (ShNQ 2.08.02-07), "Maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari" (ShNQ 4.13.31-06), "Savdo va umumovqatlanish obyektlari" (ShNQ 4.13.41-06), "Obodonlashtirish. Ta'mirlash-qurilish ishlari" (ShNQ 4.02.68-06), (ShNQ 2.07.01-03), Nogironlarning obyektga kirib-chiqish uchun qulay shart-sharoitlat yaratilishi ShNQ 2.07.02-07 larda shartlari bajarilsin. -Ob'yekt qurilishini loyihalash ishlarini bajarish jarayonida shahar-tuman yong'in hafvsizligi bo'limi tomonidan berilgan xatda ko'rsatilgan shartlar bajarilishi shart. - Ob'yektning qavatligi hududning bosh rejasini (PDP, APOT) asosida belgilansin va yon atrofda mavjud ob'ektlar balandligi hamda hududning istiqboldagi rivojlanishini hisobga olgan holda loyihalashtirilsin. -Ob'yekt qurilishi ob'yektning tashqi ko'rinishi va tashqi pardozi loyihasi tuzishda milliy va sharq me'morchiligining eng yuqori milliy bezak va an'alaridan foydalanish zarur. -Loyiha hujjatlarida tashqi kuzatuv vositalarini joylashtirish ko'zda tutilsin. -Noturar bino-inoatlar qilinadigan bino-inshoot va bostirmani bosh rejasini ishlab chiqish jarayonida atrofda joylashgan bino-inshootlar va daxa ichidagi yo'lak qurilish chiziqlari e'tiborga olinsin. -Obyekt qurilishini loyihalashtirishda daxa ichidagi ko'cha loyihaviy gabaritari inobatga olinsin. - Shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida bajarilgan Arxitektura-rejalashtirish topshiriqlariga asosan buyurtmachi va Qurilish Bosh boshqarmasi tomonidan kelishilgan hamda tasdiqlangan loyiha topshiriqlariga va 1:500 nisbatli topoxaritada chegaralariga amal qilinsin. Ob'yekt qurilishini bosh rejasini tuzishda avtoturargoh tashkil etish sharti bilan binolar tushirilgan (joylashtirilgan) obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari aks ettirilgan 1:500 nisbatdagi topoxaritada bosh (tarx) reja ishlab chiqilsin.</p>
8	Лойиҳалаштириладиган объект ер участкасида мавжуд бино ва иншоотларни бузиш ёки фойдаланиш бўйича таклифлар	<p>Loyihachining loyiha topshirig'iga muvofiq: a) qurilish uchun ajratilgan yer uchastkasida mavjud bino-inshootlarga aniqlik kiritilsin hamda foydalanish uchun takliflar kiritilsin; b) qurilish uchun ajratilgan yer uchastkasida yer osti muhandislik tarmoqlar aniqlanganda ularni belgilangan tartibda ko'cherish yoki muhofaza mintaqasini saqlash belgilansin; v) Investitsiya majburiyatlari bilan sotilgan davlat ob'ektlari holatidan qat'iy nazar buzilmaydi.</p>
9	Объектни босқичма-босқич куриш	<p>Qurilishning murakkabligiga va buyurtmachi tomonidan beriladigan loyiha topshirig'iga muvofiq ShNQ 1.03.01-16 talablariga rioya etgan holda qurilishni bosqichma-bosqich olib borish va foydalanishga topshirish jarayonlari nazarda turilishi mumkin. Ob'yektni loyihalashtirish jarayonida bosqichma-bosqich qurilishi rejalashtirilgan taqdirda, loyihada, loyihalashtirish topshirig'ida ushbu masala aks ettirilib, belgilangan tartibda kelishilsin.</p>
10	Ер майдонини ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш	<p>Loyihaning obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish qismida quyidagilar: a) obyektida igna bargli, manzarali va boshqa daraxtlar hamda butalar va gullar ekilishi; b) ko'kalamzorlashtirish hududlarining gazon o'tlari bilan qoplanishi; v) landshaft arxitekturasining yechimlaridan foydalangan holda daraxtlarning qanday shakllarda bo'lishi inobatga olinsin; g) yo'laklar chetlariga beton ("barder")lar yotqizish va zarur hollarda beton "bordiyur"larga shakl berilishi ko'rsatish.</p>

11	Санитария-гигиена талаблари	Loyihalashtirishda sanitariya-gigiena talablariga rioya etilsin. Loyihalashtirish jarayonida qurilish materiallari turlarini belgilashda O'zbekiston Respublikasi Sog'likni saqlash vazirligi tomonidan taqiqlanmagan va sanitariya-gigiena talablariga javob beradigan qurilish materiallaridan foydalanilishi shartligi ko'zda tutilsin. Obyekt qurilishi uchun tanlangan yer maydonidan oqib o'tuvchi kanal yoki ariq mavjud bo'lgan taqdirda, loyihadagi suv yo'nalishi hamda suvning muhofaza etish masofalarini saqlash va qirg'oqlarni obodonlashtirish va mustahkamlash ishlari loyihalashtirish jarayonida inobatga olinsin.
12	Ёнғиндан сақланиш талаблари	Yong'indan saqlanish talablari ShNQ 2.02.01-04 shaharsozlik normalari va qoidalariga asosan loyihalashtirilsin.
13	Экология талаблари	1. Loyihalashtirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22 noyabrdagi «Davlat ekologik ekspertizasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 949-sonli qaroriga muvofiq ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish me'yorlariga amal qilinsin. 2. Muxofaza qilinadigan tabiiy hududlarida qurilish ishlarini amalga oshirish xamda loyihalashtirish taqiqlanadi.
14	Лойиҳани келишиш	Loyiha arxitektura-rejalashtirish topshirig'iga muvofiqligiga O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki davlat xizmatlari markazi orqali quyidagilar bilan kelishilsin: Toshkent Viloyati Qurilish Bosh boshqarmasi huzuridagi arxitektura-shaharsozlik kengashi bilan - tarixiy zonalarda, shu jumladan madaniy yodgorliklarning qo'riqlash zonalarida quriladigan ob'yektlarning hamda davlat ob'yektlarining loyihalari; Bevosita viloyat Qurilish Bosh boshqarmasi bilan - boshqa ob'yektlarning loyihalari. Kelishish uchun electron shaklda quyidagi hujjatlar taqdim etilsin: - loyihaning arxitekturaga oid qismi (tushuntirish xati (tushuntirish xatida loyiha-smeta hujjatlarida yong'in hafvsizligiga, sanitariya-epidemiologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalariga rioya etish bo'yicha va boshqa yo'nalishlarda bajarilgan ishlar aks ettiriladi)); -bin ova inshootning fasadlari, qavatlar rejalari, qurilish ob'yektlarining bosh rejasi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Markazlashtirilgan investitsiyalar hisobidan moliyalashtiriladigan loyiha ishlari va investitsiya loyihalarini takomillashtirish uchun qo'shimcha choralar to'g'risida»gi 2016 yil 22 yanvardagi 15-sonli qaroriga 2-ildavada (Murakkablik toifasi bo'yicha ob'yektlar klassifikatsiyasi) keltirilgan III toifalarga mansub ob'yektlarning loyiha-smeta hujjatlarini bevosita ularni sanitariya-epidemiologiya va yong'inga qarshi nazorat xizmatlari hamda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organlari bilan kelishadilar; Qurilish hajmi 300 kub metrdan ortiq bo'lmagan ob'yektlarni bevosita o'zlari tuman (shahar) qurilish bo'limlari bilan kelishadilar.
15	Қўшимча талаблар	Loyiha tashkiloti loyihani kelishish davomida viloyat Qurilish Bosh boshqarmasi yoki uning huzuridagi hudud arxitektura-shaharsozlik kengashi tomonidan berilgan tavsiyalar va ekspertiza hulosasida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etadi. Buyurtmachi o'z hohishiga ko'ra qurilish ishlari tugagandan so'ng ob'yekt hududining ijri topotasvirini (yer osti va yer usti muhandislik kommunikatsiyalarini aks ettirgan holda) bajarilishini ta'minlaydi va uning bir nusxasini viloyat Qurilish Bosh boshqarmasiga topshiradi. Loyihani ishlab chiqishda zilzilaga bardoshlilik talablari inobatga olinsin.

Муҳандислик тармоқларига улаиш шартлари:

16	Ичимлик сув тармоғи	Texnik hulosa olish sharti bilan
17	Оқава сув тармоғи (канализация)	Texnik hulosa olish sharti bilan
18	Электр тармоғи	Texnik hulosa olish sharti bilan
19	Газ тармоғи	Texnik hulosa olish sharti bilan
20	Телефон алоқа тармоғи	Texnik hulosa olish sharti bilan
21	Иссиқлик ва иссиқ сув тармоғи	Texnik hulosa olish sharti bilan
22	Дренаж тармоғи	Texnik hulosa olish sharti bilan
23	Объектни муҳандислик тармоқларига уланиш бўйича буюртмачига ва лойиҳа ташкилотига қўйилаётган талаблар	<p>Ob'yektlarni muhandislik tarmoqlariga ulanish tartib-tamoillarni belgilovchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga rioya etilishi ta'minlansin. Ob'yektga ulanadigan yer osti va yer usti muhandislik kommunikatsiyalari unga chegaradosh o'zga yer uchastkalaridan o'tkaziladigan hollarda muhandislik kommunikatsiya-larining trassalari ushbu yer uchastka egalari bilan kelishilsin. Ob'yektga tegishli yer uchastkasi hududidan o'tgan yer osti va yer usti muhandislik kommunikatsiyalari ko'chirilishi (zarurati bo'lganda) loyihada inobatga olinsin. Ob'etga ulanadigan yer osti muhandisli kommunakatsiyalarini yotqizishda ko'chalarni yopiq holda kesib o'tishni mutasaddi tashkilotlar bilan kelishilsin. Muhandislik tarmoqlarini va inshootlarini loyihalovchi tashkilotga quyiladigan talablar: 1. Barcha muhandislik tarmoqlarining loyihasi o'z borasidagi QMQ qoidalari talablaridagi qoida va me'yorlarga javob berishi kerak, ya'ni: - Suv ta'minoti. Tashqi tarmoqlar va inshootlar QMQ 2.04.02-97; - Elektrotexnik moslamalar QMQ 3 05 06-97; - Loyihalash uchun iqlimiy va fizikaviy geologik ma'lumotlar QMQ 2.01.01-94; - Binolar va inshootlarning yong'in xavfsizligi ShNQ 2.01.02-04; - Aloqa uzatish tarmoqlari uchun yer ajratish me'yorlari QMQ 2.10.06-97; - ShNQ 1.03.01-03 loyiha hujjatlarni tasdiqlash yuzasidan qo'llanma; - QMQ 2.07.3-96 inshoot atrofini o'rash; - Avtomobil yo'llari QMQ 3.06.03-96; - Binolar ichki vodoprovodi va kanalizatsiyasi QMQ 2.04.01-98; - 0,4-750 kV kuchlanishli elektr toki uzatish tarmoqlari uchun yer ajratish me'yorlari QMQ 2.10.08-97; - Uy joylar va umumjamoat obyektlarida elektr uskanalarini o'rnatish QMQ 2.04.17-98; -Elektr tarmoqlari va inshootlarida himoya chegaralari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26 dekabrda № 1050-sonli qarorida o'rnatilgan barcha talablar bajarilishi shart. 2. Buyurtmachi tomonidan loyiha hujjatlari asosida qurilish qurib bitkazilib foydalanishga topshirilganda muhandislik tarmoqlari bo'yicha naturada bajarilgan ishlarning chismalari belgilangan tartibda viloyat qurilish bosh boshqarmasi planshetiga tushirilishi uchun taqdim etilishi shart.</p>
24	Қўшимча талаблар	Qurilish jarayonida o'rnatilgan tartibda loyiha tashkiloti tomonidan ob'yektga mualliflik nazorati olib borish ta'minlansin.
25	Архитектура режалаштириш топшириғининг амал қилиш муддати	Ushbu arxitektura-rejalashtirish topshirig'ining amal qilish muddati ob'yekt foydalanishga topshirilgunga qadar etib belgilanadi.

Ob'ekt joylashuvi va muhandislik kommunikatsiyalariga ulanish SXEMASI



Архитектура-режаласhtirish
topshirig'ini tayorlagan mutaxassis

A.Yuldashev

АРХИТЕКТУРА-РЕЖАЛАШТИРИШ ТОПШИРИҒИНИ ИШЛАБ ЧИҚДИ:

Архитектура-режалаштириш топшириғини ишлаб чиқиш бўлими раҳбари:	B.Mavlyanov
Архитектура-режалаштириш топшириғини тайёрлаган мутахассис:	A.Yuldashev

ПУЛАТОВ ЭЛМУРОД ТУХТАБОЕВИЧ

Мазкур ҳужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарори билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси Ягона интерактив давлат хизматлари портали тўғрисидаги низомга мувофиқ шакллантирилган электрон ҳужжатнинг нусхаси ҳисобланади. Электрон ҳужжатнинг нусхасида кўрсатилган маълумотлар тўғрилигини текшириш учун gero.gov.uz веб-сайтига ўтинг ва электрон ҳужжатнинг ноёб рақамини киритинг ёки мобил телефон ёрдамида QR-кодни сканер қилинг. Диққат! Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ электрон ҳужжатлардаги маълумотлар қонуний ҳисобланади. Давлат органларига Ягона порталда шакллантирилган электрон ҳужжатларнинг нусхаларини қабул қилишни рад этишлари қатъиян тақиқланган.

6484

